

“HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI KUNI”NING JINOYATCHILIKNING OLDINI OLISHDAGI O’RNI VA AHAMIYATI

Narziev Shaxzodbek Zoyirovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati
kafedrası o‘qituvchisi*

Nuriddinov Shohjaxon Nurali o‘g‘li

IIV Akademiyasi 3-o‘quv kursi, 317- guruh kursanti.

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada profilaktika inspektori tomonidan bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini amalga oshirish faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik omillari, ya’ni jabrlanuvchi shaxslarning ijtimoiy, psixologik va xulq-atvor xususiyatlarining jinoyat sodir etilishiga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, profilaktika inspektorining aholi o‘rtasida viktimologik xavfni kamaytirishga qaratilgan profilaktik suhbatlar, huquqiy targ‘ibot, axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish hamda manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlik qilishdagi roli yoritilgan. Maqolada amaldagi qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlili asosida bosqinchilik jinoyatlarining viktimologik profilaktikasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *profilaktika inspektori, bosqinchilik jinoyatlari, viktimologiya, viktimologik profilaktika, jabrlanuvchi, jinoyatlarning oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ijtimoiy xavf omillari.*

Jamiyat taraqqiyoti va davlat barqarorligining muhim shartlaridan biri — huquqiy tartib-intizomning ta’minlanishi hisoblanadi. Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu jarayonda profilaktik chora-tadbirlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni aholi o‘rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni bartaraf etish hamda jamiyatda qonuniylikni mustahkamlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni”ning tashkil etilishi faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki ta’lim muassasalari, mahalla institutlari, fuqarolik jamiyati tashkilotlari va keng jamoatchilikni qamrab oluvchi kompleks profilaktik tizimni shakllantirishga xizmat qiladi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi — bu jinoyat va ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, bartaraf etish hamda shaxslarni qonunga xilof xulq-atvordan qaytarishga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy va tarbiyaviy chora-tadbirlar majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi Konstitutsiya, qator qonunlar va qonunosti hujjatlar bilan tartibga solinadi. Xususan, huquqbuzarliklar

profilaktikasi to'g'risidagi qonunchilik profilaktikaning umumiy, maxsus va yakka tartibdagi turlarini belgilab, har bir sub'ektning vazifa va majburiyatlarini aniqlaydi.

O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni joriy etilishi jinoyatchilikqa qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlar doirasida amalga oshirilgan.

2017 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-sonli "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi. Ushbu muhim hujjat bilan faqat tizimni takomillashtirishgina emas, balki har haftagi hafta payshanba kuni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni" sifatida belgilanishi ham nazarda tutildi. Bu kun doirasida xonadonbay ishlash, profilaktik suhbatlar, fuqarolar bilan uchrashuvlar kabi tadbirlar o'tkazilishi vazifasi belgilandi.

Demak, huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni tuzilgan huquqiy mexanizm asosida joriy etilgan bo'lib, bu kun jinoyatchilikning oldini olishda fundamental profilaktik chora-tarixalarni tizimli ravishda joriy qilish bilan belgilangan.

Shuningdek bu qaror bilan respublikada Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etildi, uning faoliyati profilaktika va jinoyatchilikka qarshi kurashishni muvofiqlashtirishni ta'minlaydi

Ushbu qarorga ko'ra haftaning har payshanba kuni «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni» etib belgilandi va unda quyidagi tadbirlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi:

❑ huquqbuzarliklarga murossasizlik madaniyatini shakllantirish, huquqiy nigilizmga barham berish va fuqarolarning qonunga itoatkorlik xulq-atvorini ommalashtirishga qaratilgan, shu jumladan ichki ishlar organlari tayanch punktlari, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa davlat idoralari va tashkilotlarida «ochiq eshiklar kuni»ni tashkil etish orqali tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

❑ qonuniylik ahvolini va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini atroflicha muhokama qilish uchun joylarda, birinchi navbatda kriminogen vaziyat nomaqbul bo'lgan hududlarda fuqarolarning sayyor qabullarini hamda davlat idoralari va tashkilotlari vakillarining aholi bilan uchrashuvlarini tashkil etish;

❑ ijtimoiy ahamiyati muhim bo'lgan sud muhokamalari bo'yicha sayyor sud majlislarini o'tkazish;

❑ aholi turmushining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini o'rganish, huquqbuzarlik sodir etishga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish maqsadida uyma-uy yurishlarni tashkil etish;

❑ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar haqida davlat idoralari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

☐ maxsus teleko'rsatuv va radioeshittirishlarda davlat idoralari va tashkilotlari vakillari, jamoatchilik ishtirokida joylarda jinoyatchilik ahvoli, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlari, jinoyatlarni fosh etish va aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish bo'yicha ishlarning natijalarini muhokama qilish;

☐ huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo'yicha ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet butunjahon axborot tarmog'ida maqolalar, sharhlar va boshqa materiallar chop etilishini tashkil etish.

“Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” mazkur normalarning amaliyotda tatbiq etilishi, aholiga huquqiy bilimlarni tizimli ravishda yetkazish hamda jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi kunining asosiy maqsadi — jamiyatda huquqbuzarlikka nisbatan barqaror immunitetni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi:

- ☐ aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;
- ☐ yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish;
- ☐ ijtimoiy xavfli xulq-atvorga moyil shaxslarni barvaqt aniqlash;
- ☐ huquqbuzarlikka olib keluvchi ijtimoiy omillarni bartaraf etish;
- ☐ davlat organlari va jamoat institutlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish.

Mazkur kun doirasida o'tkaziladigan tadbirlar huquqbuzarliklarning faqat oqibatlariga emas, balki ularning ildiz sabablariga ta'sir ko'rsatishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Kriminologiya fani nuqtai nazaridan jinoyatchilik — bu ijtimoiy salbiy hodisa bo'lib, uni faqat jazo choralari orqali bartaraf etib bo'lmaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarning katta qismi ijtimoiy muhit, tarbiya, ishsizlik, huquqiy bilimning yetarli emasligi kabi omillar ta'sirida sodir etiladi.

Shu bois huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni doirasida olib boriladigan ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar jinoyatchilik darajasini pasaytirishda samarali vosita hisoblanadi. Masalan, ta'lim muassasalarida huquqiy savodxonlikka bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazilishi yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik sodir etish holatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan qaraganda, “Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni” quyidagi natijalarni ta'minlaydi:

Birinchidan, aholining huquqiy bilim darajasi oshadi. Qonun talablarini bilgan shaxs huquqbuzarlik sodir etishdan tiyiladi.

Ikkinchidan, jinoyatchilikka moyil ijtimoiy guruhlar bilan manzilli ish olib boriladi. Masalan, ishsiz yoshlar, nazoratga olingan shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish ijobiy samara beradi.

Uchinchidan, mahalla institutining roli oshadi. Mahallalarda o'tkaziladigan huquqiy tadbirlar jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

To'rtinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi. Bu esa jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar natijasida ayrim hududlarda huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni doirasida tizimli ishlar olib borilgan mahallalarda jinoyatchilik ko'rsatkichi sezilarli darajada kamaygani aniqlangan.

Masalan, ta'lim muassasalarida huquqshunoslar ishtirokida o'tkazilgan ma'ruzalardan so'ng o'quvchilar o'rtasida ma'muriy huquqbuzarliklar soni qisqargan. Shuningdek, profilaktika inspektorlari tomonidan oilalar bilan individual ish olib borilishi oilaviy nizolar asosida sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olishga xizmat qilgan.

Bu kabi misollar huquqbuzarliklar profilaktikasi kunining jinoyatchilikka qarshi kurashda amaliy samaradorligini isbotlaydi.

Profilaktikaning samaradorligi ko'p jihatdan sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka bog'liq. Davlat organlari, ta'lim muassasalari, mahalla faollari, nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalari birgalikda harakat qilgandagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligi ko'p jihatdan mazkur jarayonda ishtirok etuvchi sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning qay darajada tizimli va muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilganiga bog'liq. Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni ana shu hamkorlikni mustahkamlash, davlat va jamoat institutlarining bir maqsad sari yo'naltirilgan faoliyatini ta'minlashda muhim tashkiliy-amaliy platforma vazifasini bajaradi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'ektlari deganda jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari, jamoat tuzilmalari va fuqarolar tushuniladi. Ular quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar (ichki ishlar organlari, prokuratura, sudlar);
- mahalliy davlat hokimiyati organlari;
- ta'lim muassasalari;
- mahalla va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;
- nodavlat notijorat tashkilotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- ota-onalar va keng jamoatchilik.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni ushbu sub'ektlarning har biri uchun o'z vazifa va mas'uliyatini yanada aniq anglash hamda o'zaro hamkorlikda harakat qilish imkoniyatini yaratadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar profilaktika tizimining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Ularning huquqbuzarliklar profilaktikasi kunidagi faoliyati quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- aholi o'rtasida huquqiy tushuntirish ishlarini olib borish;
- huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik suhbatlar o'tkazish;
- mahalla va ta'lim muassasalari bilan qo'shma tadbirlar tashkil etish;
- jinoyatchilik holati tahlili asosida maqsadli profilaktik choralar ishlab chiqish.

Bu jarayonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining ochiqqligi va jamoatchilik bilan muloqotga yo'naltirilganligi jinoyatchilikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi.

Mahalla huquqbuzarliklar profilaktikasining eng samarali ijtimoiy instituti sifatida jamiyatda alohida o'rin tutadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi kunida mahalla faollarining ishtirok etishi profilaktika ishlarining manzilli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Mahalla orqali:

- oilalardagi muammolar barvaqt aniqlanadi;
- yoshlar va ijtimoiy xavfli guruhlar bilan individual ish olib boriladi;
- jamoatchilik nazorati kuchaytiriladi.

Mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasidagi yaqin hamkorlik jinoyatchilikka olib keluvchi omillarni ildizidan bartaraf etish imkonini yaratadi.

Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik ustuvor ahamiyatga ega. Huquqbuzarliklar profilaktikasi kunida maktab, akademik litsey va kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlar yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu hamkorlik doirasida:

- huquqiy ma'ruzalar va davra suhbatlari o'tkaziladi;
- huquqbuzarlik oqibatlari haqida ilmiy-amaliy tushuntirishlar beriladi;
- yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari muhokama qilinadi.

Natijada yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka nisbatan murosasiz munosabat shakllanadi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari huquqbuzarliklar profilaktikasi kunida aholining turli qatlamlariga ta'sir o'tkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ular orqali profilaktik tadbirlar jamiyatning keng qatlamini qamrab oladi.

Jamoatchilik bilan hamkorlik:

- huquqiy madaniyatni ommalashtirish;
- jinoyatchilikka qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirish;
- fuqarolarning faol pozitsiyasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari profilaktika kunida amalga oshiriladigan tadbirlarni keng yoritish orqali jamiyatda huquqbuzarlikka nisbatan salbiy munosabatni shakllantiradi. OAV orqali tarqatiladigan huquqiy axborot profilaktika ta'sirini bir necha barobar oshiradi.

Sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik quyidagi mexanizmlar orqali ta'minlanadi:

- qo'shma reja va dasturlar ishlab chiqish;
- ma'lumot almashish tizimini yo'lga qo'yish;
- qo'shma monitoring va tahlil ishlarini olib borish;
- mas'uliyatni aniq taqsimlash.

Bu mexanizmlar huquqbuzarliklar profilaktikasi kunini bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz profilaktika tizimining muhim bo'g'iniga aylantiradi.

Xulosa qilib aytganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni jinoyatchilikning oldini olishda sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi

muhim ijtimoiy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur kun doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahalla instituti, ta'lim muassasalari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi muvofiqlashgan faoliyat profilaktika tadbirlarining manzilli va samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlik jinoyatchilikka olib keluvchi ijtimoiy omillarni barvaqt aniqlash, huquqbuzarlikka moyil shaxslar bilan individual ish olib borish hamda aholining huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish imkonini beradi. Ayniqsa, mahalla va ta'lim muassasalari bilan olib boriladigan qo'shma ishlar yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi kunini tashkil etish jarayonida sub'ektlar o'rtasida axborot almashish, qo'shma rejalar ishlab chiqish va profilaktika natijalarini tahlil qilish amaliyotining yo'lga qo'yilishi mazkur faoliyatning tizimlilikini ta'minlaydi. Bu esa profilaktik tadbirlarni bir martalik emas, balki uzluksiz va barqaror jarayon sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, huquqbuzarliklar profilaktikasi kunida sub'ektlar o'rtasidagi hamkorlikni yanada takomillashtirish jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartib-intizomni mustahkamlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash hamda jinoyatchilik darajasini pasaytirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil 26 dekabr. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>

2. Таштемиров А. А., Комилов А. Одам савдоси жиноятига қарши курашишни такомиллаштиришга оид айрим мулоҳазалар //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 7. – С. 135-138.

3. Таштемиров, А. А. "Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўйича ички ишлар органларининг ҳамкорлиги." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.25 (2023): 32-40.

4. Таштемиров, А. А. "Ҳуқуқбузарлик содир этилишининг сабаблари ва шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятини такомиллаштириш йўналишлари." So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi 6.12 (2023): 454-461.

5. Tashtemirov A., Baxtiyorov S. Profilaktika inspektorining jinoyat ishlar bo'yicha sudlar bilan hamkorligining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 38-42.

6. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bo'yicha ishlash faoliyatini huquqiy ta'minlash //Наука и технология в современном мире. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 59-61.

7. Tashtemirov A., Usmonova Y. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan yoshlar bilan ishlash faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. 12. – С. 51-52.

8. Tashtemirov A., Raxmonqulov S. Profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatining tushunchasi //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 62-67.

9. Tashtemirov A., Sadullaev M. Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda iiolari profilaktika inspektorlarining bojxona xizmati bilan hamkorligining tashkiliy-huquqiy asoslari //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – Т. 3. – №. Maxsus son 12. – С. 50-53.

10. Таштемиров А. А. и др. Психологическая поддержка деятельности инспекторов профилактики в работе с лицами, осужденные к наказанию исправительные работы //International scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 28. – С. 97-102.

11. Таштемиров, А. А. "Фирибгарликка имкон берувчи шарт-шароитлар ва ушбу турдаги жиноятларга тайинладиган жазо тизимининг ўзига хослиги." Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук 2.10 (2022): 42-48.

12. Таштемиров, А. А. "Йулларда харакатланишни тартибга солишнинг ҳукукий жихатлари ва бу борада технологиянинг ахамияти." siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali 1.2 (2022): 111-115.

13. Таштемиров, А. А. "Техник криминалистик экспертиза-ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг асосий омили сифатида." O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 2.21 (2023): 12-19.